ayolning haddan tashqari pardoz qilgani va sun'iy ko'rinishi ifodalanmagan, balki unga qisman ijobiy ohang berilgan. Fransuz tilidagi *une grosse brune* kabi tasvirlar madaniy jihatdan o'zbek tiliga ko'chirilganda, bevosita tarjima qilish qiyinchilik tug'diradi. O'zbek madaniyatida ayolni semiz va qoramtir deb ta'riflash, ko'pincha, salbiy ohangda qabul qilinadi, shu sababli tarjimon bu elementni olib tashlagan. Biroq bu o'zgartirish asl matndagi qahramonning ko'rinishi haqidagi ma'lumotlarni yetkazmaydi. Bu o'rinda *to'lachadan kelgan qoramag'iz ayol* tarzida berish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Asl matnning uslubi o'ta detallashtirilgan va nazokat bilan qurilgan. Muallif (Guy de Maupassant) ayolning tashqi ko'rinishini aniq va tasviriy birliklar orqali ifodalashga harakat qilgan. Matnda quyidagi xususiyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi:

Ayolning tashqi ko'rinishi juda aniq tasvirlangan: *une grosse brune, chair blanchie par la pâte, œil noir, allongé, souligné par le crayon, sous des sourcils énormes et factices*. Bu so'zlar faqat yuzaki ta'rif bo'lib qolmay, balki qahramonning pardozidagi sun'iylikni va shaxsiy xarakteristikalarini ham ko'rsatib beradi. Matnda muallif subyektiv fikrini bildirishga shoshilmaydi. Muallif ayolni yaxshi yoki yomon deb baholamaydi, balki u qanday ko'rinishini tasvirlaydi.

Pardozning sun'iyligi va bo'rttirilganligini ta'kidlash bilan cheklanadi, xulosani o'quvchining o'ziga qo'yib beradi. Asl matnda muallif tasvirni obyektiv tarzda bergan bo'lsa, tarjima qilingan matnda subyektiv ohang paydo bo'lgan. *Xotin lobar* so'z birikmasi bu ayolni asl matndagidek oddiy kuzatish orqali emas, balki go'zal deb ta'riflaydi. Bu esa muallifning niyatiga qisman zid keladi.

Asl matnda ayolning tashqi ko'rinishidagi sun'iylik va haddan oshgan pardoz o'quvchida salbiy taassurot qoldirish uchun tasvirlangan. O'zbekcha tarjimada esa bu salbiy taassurot o'rniga ijobiyroq yoki neytral ohang paydo bo'lgan. Asl matnda qahramonning pardoz uslubi orqali uning xarakteriga (haddan oshgan sun'iylik va go'zallikni bo'rttirish) oid tasavvurlar yaratilgan. Tarjimada esa bu jihatlar tasvirlanmay, o'quvchining o'z qiyofasida biror "ideal go'zallik"ni tasavvur qilishiga yo'l qo'yilgan. Bu uslub farqi qahramon obrazining tarjimada o'zgarishiga olib kelgan.

Ma'noni to'liq saqlash uchun asl matndagi *grosse brune* va *factices* kabi birliklar tarjimada o'z-bek o'quvchisiga yaqinroq va aniqroq tarzda ifodalanishi kerak edi. Masalan, "Sun'iy pardoz bilan yuzlari oqarib ketgan, qora cho'zilgan ko'zlariga qalam tortilgan, qalin bo'yalgan qoshlari bilan..." tarzida tarjima qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Yana shuni aytish lozimki, tarjimada "lobar" so'zi ayolga ijobiy ohang beradi, lekin bu asl matnning niyatiga zid. Sun'iy va haddan ziyod pardoz qilgan ayol qiyofasi madaniyatga mos ekvivalent bilan berilishi lozim edi.

Xulosa va takliflar (Conclusion and Recommendations). Tarjimada shaxsni tasvirlovchi birliklar muhim rol o'ynaydi, chunki ular faqat personajlarning tashqi ko'rinishini emas, balki ularning ichki dunyosini, hissiyotlarini ham o'quvchiga yetkazadi. Mopassaning *"Azizim"* romanidagi shaxsni tasvirlovchi birliklarning tarjimadagi ahamiyati nafaqat tilning o'ziga xos xususiyatlarini, balki madaniyatlararo tafovutlarni hisobga olishni talab qiladi. Tarjimonlar, bu birliklarni to'g'ri tarjima o'zining til va madaniyatlararo bilimini chuqur ishlatib, asar mazmunini va personajlarning ichki holatini mukammal tarzda ifodalashga intilishlari kerak. Shaxsni tasvirlovchi birliklarning tarjimada to'g'ri aks ettirilishi, o'quvchining asar bilan chuqurroq bog'lanishiga va uning mazmunini to'g'ri tushunishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). I.Gafurov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi, 2012.
(2). Maupassan. Bel-Ami. Librairie Générale Française, 2024.
(3). Mopassan. Azizim. "Ilm ziyo zakovat", 2021.
(4). Komiljon Jo'rayev. Tarjima san'ati. Toshkent, 1982.
(5). E.Ochilov. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2012.
(6). Ғайбулла Саломов. Таржима ташвишлари. Тошкент, 1983.
(7). O'zbek tilining izohli lug'ati. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
(8). Le Robert dico en linge. https://dictionnaire.lerobert.com/

Tursunbayeva Zuhra Ro'zimat qizi (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi tayanch doktoranti; zuhra4822@gmail.com)

BADIIY TARJIMADA MUSHTARAK MADANIY-TARIXIY BIRLIKLARNING BERILISHI

Annotatsiya. *Maqolada o'zbek tilidan hindiy tiliga tarjima qilingan tarixiy asarlardagi arxaizmlar, shuningdek, milliy madaniyatga xos so'zlarning tarjimada ifodalanishi tahlil etildi. Jumladan, taqya, dastor, to'n, dasturxon, dubulg'a, po'stin, qo'shin, salohdor, chaqirim kabi so'zlarni hindiy tiliga o'girishda*

yuzaga kelgan muammolar haqida so'z boradi. Yana alohida e'tibor mazkur so'zlarning tarjimon tomonidan qanday, qay usullarni qo'llagan holda tarjima qilganiga qaratilgan va tahlilga tortilgan. Shuningdek, mazkur maqolada tarixiy asarlar tarjimasida nimalarga e'tibor berish kerakligi haqida bir qancha olimlarning fikr-mulohazalari keltirib o'tilgan. Ushu ilmiy maqola uchun adabiy manba sifatida atoqli o'zbek yozuvchisi Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" va Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asarlari hamda ularning mohir tarjimon Suthir Kumar Mathur tomonidan hindiy tiliga qilingan tarjimasi tanlab olindi va tahlilga tortildi. Tarjima asardagi yutuq va kamchiliklar batafsil keltirib o'tildi.

Kalit so'zlar: *tarjima, tarjimon, transliteratsiya, ekvivalent, tarixiy-arxaik leksika, asliyat.*

ПЕРЕДАЧА ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНЫХ ЕДИНИЦ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПЕРЕВОДЕ

Аннотация. *В статье анализируются архаизмы в исторических произведениях, переведенных с узбекского языка на хинди, а также выражение в переводе слов, характерных для национальной культуры. В частности, в статье рассматриваются проблемы, возникающие при переводе на хинди таких слов, как тюрбан, дастор, тон, дастурхан, шлем, пальто, армия, салахдар и килдим. Особое внимание уделяется также методам и приемам, используемым переводчиком для перевода этих слов и их анализа. В статье также представлены мнения ряда ученых о том, на что следует обращать внимание при переводе исторических произведений. В качестве литературных источников для данной научной статьи были выбраны и проанализированы "Сокровища Улугбека" известного узбекского писателя Одила Якубова и "Звездные ночи" Пиримкула Кодирова, а также их перевод на хинди опытным переводчиком Сутиром Кумаром Матхуром. Подробно описаны достижения и недостатки перевода.*

Ключевые слова: *перевод, переводчик, транслитерация, эквивалент, историко-архаичная лексика, оригинальность.*

THE TRANSFER OF COMMON CULTURAL-HISTORICAL UNITS IN ARTISTIC TRANSLATION

Annotation. *The article analyzes archaisms in historical works translated from Uzbek into Hindi, as well as the expression of words specific to national culture in translation. In particular, it discusses the problems that arose when translating words such as takya, dastor, ton, dasturkhan, dubulga, poustin, qoshin, salohdar, khurim into Hindi. Special attention is also paid to the methods and methods used by the translator to translate these words and analyzes them. The article also cites the opinions of several scholars on what should be paid attention to when translating historical works. The works of the famous Uzbek writer Odil Yakubov "Ulugbek Khazinasi" (The Treasure of Ulugbek) and Pirimqul Qodirov "Starry Nights" (Starry Nights) and their translation into Hindi by the skilled translator Suthir Kumar Mathur were selected and analyzed as literary sources for this scientific article. The achievements and shortcomings of the translation work were described in detail.*

Keywords: *translation, translator, transliteration, equivalent, historical-archaic lexicon, originality.*

Kirish. Tarjima jarayoni tarjimondan katta mas'uliyat talab qiladi va uning oldiga bir qancha talablarni qo'yadi. Tarjimon, avvalo, o'z ona tilini yaxshi bilishi, boshqa xalqlarning, xususan, tarjima qilinayotgan asar mansub xalqning adabiyoti, tarixi, madaniyati va mentalitetini chuqur o'rgangan bo'lishi lozim. Tarjimonga qo'yiladigan talablardan yana biri filologik bilimning yuqori darajada bo'lishidir. Uning o'z ona tilining o'ziga xos xususisyatlarini yaxshi bilishi, fonetika, grammatika, leksikologiya va stilistika masalalarini teran tushunishi, adabiyot nazariyasi, badiiy ifoda usullarini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi tarjima matnini talab darajada sayqal topishiga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Tarixiy asarlar tarjimasi tarjimondan ikki karra ko'proq mas'uliyat talab etadi. Chunki tarixiy asarlar davr ehtiyojiga muvofiq tarzda ko'plab tarixiy va arxaik lisoniy vositalar bo'ladiki, bunda asliyat ruhini to'la-to'kis qayta yaratish mas'uliyati tarjimondan zaruriy lisoniy vositalarni ta'g'ri tanlash yo'li bilan asliyat vujudga kelgan davr xususiyatini qayta yaratishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolada Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" va Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanlarining hindcha tarjimasida tarjimonning so'z tanlashda duch kelgan muammolar tadqiq etdildi.

Ali Qushchi **qora duxoba taqyasining** ustidan **mudarra dastorini** o'radi, egniga yengsiz kimxob nimchasini, uning ustidan oq chakmonini kiydi-da, tik zinalardan yuqoriga chiqa boshladi [8;6-b.].

आली कुश्ची ने **मख़मल की काली टोपी** के ऊपर **मुदर्रिसोंवाला अमामा** बांधा, ज़री की वास्कट पहनी ओर कंधों पर ऊंट के ऊन से बना सफ़ेद चकमान डाल दिया [12;6-b.].

Ushbu jumlada tarixiy milliy koloritga xos bir nechta so'zlar keltirilgan. Ularning tarjimada berilishini birma-bir ko'rib o'tamiz. Qora duxoba taqya-मख़मल की काली टोपी (makhmaal ki kali to'pi) deb tarji-

ma qilingan. Taqya [11;148-b.] sidira matodan tayyorlangan “gulsiz do‘ppi”. टोपी so‘zi “do‘ppi” so‘ziga mos keladi. O‘zbek “do‘ppisi”dan farqli o‘laroq, “chit” yoki “qo‘lda to‘qilgan” bo‘ladi. Shuningdek, टोपी [1;654-b.] hindiy tilida, umuman, bosh kiyim ma’nosini beradi, ya’ni shapka, qalpoq va h.k. Mudarra dastori birikmasi – मुदर्रिसोंवाला अमामा (mudariso‘ngvala amama) tarzida o‘girilgan. Dastor [10;214-b.].“O‘zbek tili izohli lug‘ati”da *salla* tarzida berilgan. अमामा [1;124-b.] arab tilidan hindiy tiliga ham o‘zbek tiliga ham o‘zlashgan so‘z bo‘lib,“salla”ni bildiradi. Ammo hind tilida ham पगड़ी *(pagri)* so‘zi mavjud bo‘lib, salla so‘zining ayni tarjimasidir. Bu yerda tarjimonning so‘z tanlash mahoratini alohida ta’kidlash lozim. Tarjimon tarjimada sof hindiy tilida mavjud पगड़ी so‘zini qo‘llamay, arab tilidan o‘zlashgan अमामा so‘zini tanlashda dinlararo yaqinlik va o‘xshashlik hisobga olgan. Milliy tushunchalarni ifoda etadigan xos so‘zlarning ayrimlari asliyatga mansub bo‘lgan tildan tashqari, yana qator xalqlarda ham uchrashi, shuningdek, tarjima qilinga tilning ham tarkibiy qismi hisoblanishi mumkin. Bunday so‘zlar hudud, turmush-sharoit jihatlaridan bir-birlariga yaqin, doimiy munosabat va muloqotda bo‘lib turadigan xalqlarda ko‘proq uchraydi.

“Yulduzlii tunlar” romanida keltirilgan “kimxob to‘n” [6;13-b.] so‘zini tarjimon पोस्तीन [13;161-b.] (po‘stin) shaklida tarjima qilgan. पोस्तीन hindiy tilida “mo‘yna, mo‘ynali po‘stin” [2;124-b.] ma’nosini ifodalaydi. Ushbu so‘z hind va o‘zbek tillariga fors tilidan o‘zlashgan bo‘lib, ikkala tilda ham “mo‘ynali oshlangan teridan tikilgan, uzun, issiq qishlik kiyim” ma’nosini bildiradi. Ammo po‘stin to‘n so‘zi ifodalagan ma’noga mos kelmaydi. “To‘n” oldi ochiq, paxtali yoki paxtasiz uzun ustki milliy kiyimdir. Asarning bir qancha o‘rinlarida tarjimon to‘n so‘zini चोग़ा (cho‘g‘a) tarzida tarjima qilgan. Demak, **पोस्तीन** so‘zining o‘rniga चोग़ा leksemasini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Ikkala asarda uchraydigan “dasturxon” so‘zi esa दस्तरख़ान (dasturxon) tarzida ifodalanilgan. Bu so‘z hind va o‘zbek tillariga fors tilidan o‘zlashgan bo‘lib, “dasturxon” degan ma’noni anglatadi (ovqat qo‘yiladigan mato, unga qo‘yilgan taom). दस्तरख़ान dasturxon so‘ziga ekvivalentdir. “Muayyan xalq turmush tushunchalarini anglatadigan ko‘pchilikka xos so‘zlarning ma’nolari va o‘taydigan vazifalari mamlakatlarning o‘zaro madaniy, ma’rifiy, iqtisodiy, siyosiy aloqalari natijasida qator xalqlar vakillariga, shu jumladan, tarjima tili sohiblariga ham tanish bo‘lib qoladiki, tarjimon bunday so‘zlarga o‘z tillarida muqobil lisoniy vo-sitalar qidirib yurmasdan, ularni transliteratsiya yo‘li bilan talqin etaveradilar” [3;237-b.].

Tarixiy asarlarda ko‘p uchraydigan dubulg‘a so‘zi tarjimada शिरस्त्राण (shirastran) tarzida berilgan. Dubulg‘a [9;237-b.]– tig‘ yoki o‘qdan saqlanish uchun temir yoki po‘latdan ishlangan bosh kiyim, shlem. शिरस्त्राण “dubulg‘a” so‘ziga ekvivalentdir. Bundan tashqari, hindiy tilida dubulg‘a so‘zini ifodalovchi कूंड (kund) so‘zi ham mavjud bo‘lib, u ayni tarixiy so‘zdir.

Odatda, arxaiklashtirilgan asarlarni tarjima qilish uchun til vositalarini tanlaganda tarjimondan avvaliga tarixiy masofaga rioya qilish, zamonaviy leksikadan voz kechish talab qilinadi.

“Tarixiy mavzudagi asarlar tarjimasida o‘sha zamonga mos kelmaydigan so‘zlarni ishlatishdan ehtiyot bo‘lish kerak. Zamonaviy, hatto keying davrda paydo bo‘lgan so‘z va tushunchalarni qo‘llash ham tarixiy haqiqatning buzilishiga sabab bo‘ladi. Shu bilan birga, asarning o‘tmishga daxldorligini bildirib yurish uchun muayyan darajada arxaik so‘zlardan ham foydalanish joiz”.

O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” va “Ko‘hna dunyo” romanlarini turk tiliga o‘girgan Ahsan Batur tabib o‘rniga doktor, katta xona, mashvaratxona o‘rniga salon, shuningdek, mersi, pardon kabi yevropacha so‘zlarni ishlatadi, bu so‘zlar turk tilining o‘ziga ham XX asrda fransuz tili orqali kirib kelgan [5;39–45-b.].

Endi ushbu so‘zga e’tibor qaratsak. “Salohdor” [10;209-b.]. so‘ziga asliyatda matn ostida “darvozabon” deb izoh berilgan. Darvozabon [10;209]. darvoza qorovuli yoki soqchisi. Tarjimon tarjimada ushbu so‘zni दरबान [13-9-b.] (darban) so‘zi bilan ifodalagan. दरबान [1;755-b.] so‘zi fors tilidan o‘zbek va hind tillariga o‘zlashgan bo‘lib, “saroy darvozasi posboni” degan ma’noni anglatadi. “Darbon” o‘zbek tilida tarixiy so‘z hisoblanadi. Hindiy tilida esa tarixiy so‘z emas. Ammo hindiy tilida aynan “darvozabon” so‘zini izohlovchi द्वारपाल (dvaarpal) so‘zi mavjud va u aynan hindiy tilida tarixiy so‘z hisoblanadi. Tarjimon qo‘llagan दरबान so‘zi xato emas, albatta. Ammo asliyatdagi tarixiy so‘zni tarjima tilida mavjud tarixiy leksika bilan ifodalash maqsadga muvofiqdir. Bu tarjimaning yanada chiroyli va aniq chiqishini ta’minlaydi. Tarjima tilida mavjud tarixiy leksikadan foydalanish kitobxon uchun ham tushunarli bo‘ladi.

Bir qancha o‘rinlarda “chaqirim” uzunlik o‘lchov birligi मील tarzida tarjima qilingan. Bizga ma’lumki chaqirim-metrik o‘lchov sistemasi qabul qilingunga qadar qo‘llangan 1,06 kmga teng qadimgi uzun-

lik o‘lchov birligi. Tarjimada qo‘llanilgan मिल so‘zi ingliz tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, 1,6 km.ga teng masofa o‘lchovidir. मिल “chaqirim” so‘zini izohlay olsada, asar tarixiy bo‘lganligi uchun ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlar o‘rniga hindiy tilida mavjud so‘zlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Hindiy tilida कोस [1;714-b.] uzunlik o‘lchov birligi mavjud bo‘lib, 3200 m.ga tengdir va u qisman bo‘lsa-da, “chaqirim” so‘zini izohlay oladi.

“Muayyan bir xalq hayotidagi o‘lchov birliklarini boshqasi bilan almashtirishda uni asarning umumiy ohangiga, undagi tarixiy haqiqatga, milliy ruhga nechog‘lik mos kelish-kelmasligini jiddiy o‘ylab ko‘rish kerak. Beparvolik bilan o‘sha o‘lchov birligi haqida zarur ma’lumotga ega bo‘lmay turib, uni o‘z tilidagi mos kelmaydign o‘lchov birligi orqali ifodalash asarning badiiy-estetik qiymatiga putur yetkazadi, kitobxonda voqelikka nisbatan ikkilanish, ishonchsizlik uyg‘otadi” [5;90-b.].

Xulosa. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, “Ulug‘bek xazinasi” “Yulduzli tunlar” romanlarining hindcha tarjimasida tarjimon, asosan, arab va fors, shuningdek, ingliz tillaridan hindiy tiliga o‘zlashgan so‘zlardan foydalangan.“Vazir”– वजीर, “qozi” –क़ाज़ी, “sipoh”-सिपाही, choshnagir–चाशनीगीर kabi so‘zlar shular jumlasidandir.

Tarjimon romandagi voqealar rivojini tasvirlashda, o‘tmish nafasi ufurib turgan arxaik so‘zlardan mahorat bilan foydalangan. Kerakli o‘rinlarda tarixiy-leksik birliklar izohlab berilgan. Ammo bu prinsip butun tarjima davomida izchil saqlanmagan. Tarjimon ba’zi so‘zlarni tarjima qilishda sinonim so‘zlardan foydalanib tarjima qilgan. Ularning barchasi tarixiy-arxaik leksika hisoblanmasa-da, tilning lug‘at boyligidan foydalanishga harakat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Индо-русский словарь. В двух томах, 1-том. А.С.Бархударов, В.М.Бескровный и др. Под ред. В.М. Бескровного. М., “Советская энциклопедия”, 1972, с. 912.

(2). Hindi-russkiy slovar. V dvux tomax, 2-tom. A.S.Barxudarov, V.M.Beskrovniy i dr. Pod red. V.M Beskrovniy. M., “Sovetskaya ensiklopediya”, 1972, c. 907.

(3). Isoqova Sh. Badiiy tarjima milliylik va tarixiylikning aks ettirilishi (Oybekning “Navoiy” romanining fransuzcha tarjimasi misolida). Filol. fan. nomz. …diss., T., 2004, 130-bet.

(4). Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent, “Fan”, 2005, 352-bet.

(5). Ochilov E. Arxaizm va tarjima. Sharq tarjimashunosligi. Tarixi, hozirgi kuni va kelajagi. Ilmiy maqolalar to‘plami, Toshkent, ToshDSHI, 2014, 39–45-betlar.

(6). Qodirov P. Yulduzli tunlar. Toshkent, “Sharq”, 2009, 543-bet.

(7). Ульциферов О.Г. Современный русско-хинди словарь. М., “Русский язык Медиа”, 2004, 1035 с.

(8). Yoqubov O. Ulug‘bek xazinasi. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1994, 334-bet.

(9). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik, 1-jild, Toshkent, 2006, 808-bet.

(10). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-jild, S.F.Akobirov, T.A.Aliqulov, Z.M.Ma’rufov ва bosh., M.Ma’rufov tahriri ostida, M., “Rus tili”, 1981, 632-bet.

(11). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild, S.F.Akobirov, T.A.Aliqulov, Z.M.Ma’rufov ва bosh., M.Ma’rufov tahriri ostida, M., “Rus tili”, 1981, 603-bet.

(12) .याकुबोव अ .उलूगबेक की धरोहर) आनूवदक सुधीर कुमारमाथुर ,(रादुगाप्रकाशन ,ताशक़न्द १९८३ – ३६६ प.

(13). कादीरोव प .बाबूर) ,आनूवदक सुधीर कुमारमाथुर ,(रादुगाप्रकाशन ,मास्को १९८८– ५५६ प.

Jumanyazova Muxabbat Xusinovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi; khiva1970@mail.ru; ORCID: 0000-0002-2471-5823)

XORAZM XALQ DOSTONLARI TILIDA ASOSIY KONSEPTLAR VA QADRIYATLARNING IFODALANISHI

Annotatsiya. *Maqolada Xorazm dostonlari tili shunchaki o‘tmish yodgorligi emas, balki xalqning ko‘p asrlik tafakkur tarzi, dunyoqarashi va qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan tirik xazina ekanligi, shu bois uni o‘rganish orqali hozirgi davr uchun ham dolzarb bo‘lgan ko‘plab madaniy-ma’rifiy masalalarga javob topish mumkinligi haqida fikrlar yuritiladi. Unda Xorazm xalq dostonlaridan “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonidagi lisoniy vositalar (so‘zlar, iboralar, she’riy parchalar, nutqiy vaziyatlar) orqaliuning asosiy konseptlari va qadriyatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Xorazm dostonlari, folklor tili, milliy mentalitet, konsept, qadriyat, asosiy konstantalar, lingvistik xususiyatlar mental olam.*